**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**
O`zDSMI rektori
N.B.Sayfullaev
**2024-yil "30" avgust**

**Ro'yxatga olindi: № BD-60320400**
**2024-yil "___" __________**

# NUTQ MADANIYATI
# O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100 000 - Ta'lim
200 000 - San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 110000 - Ta'lim
210000 - San'at

**Ta'lim yo'nalishi:**
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi))
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi))
60210100 - Texnogen san'ati (kino, televideniye va radio ovoz rejissorligi)
60210200 – Kino teleoperatorlik
60211000 - San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)
60211000 - San'atshunoslik (kino san'ati tanqidiva tahlili)
60211000 - San'atshunoslik (teatrshunoslik)
60211100 - Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati)
60211100 - Aktyorlik san'ati (qo'g'irchoq teatr aktyorligi)
60211100 - Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi)
60211200 - Rejissyorlik (kino va televideniye rejissorligi)
60211200 - Rejissyorlik (musiqali teatr rejissorligi)
60211200 – Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissorligi)
60211200 – Rejissyorlik (dramatik teatr rejissorligi)
60211900 - Xalq ijodiyoti (ashula va raqs)
60211900 - Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)
60212000 - Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish

**TOSHKENT – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>NNS 20012</td><td>O'quv yili<br>2024/2025</td><td>Semestr<br>5</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>o'zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td>1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td colspan="2">Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td></td><td>Nutq madaniyati</td><td>30</td><td>30</td><td colspan="2">60</td></tr>
</table>

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Ushbu fan talabalarni madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar, notiqlik san'ati haqida ma'lumot berish, nutqning asosiy sifatlari (to'g'riligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, maqsadga muvofiqligi) haqida bilim berish, nutq texnikasini egallashda ko'nikma hosil qilish, nutqqa tayyorgarlik ko'rish yo'llarini o'rganish, olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini hosil qilish, notiqlik mahorati ko'nikmalarini shakllantirish bilan qurollantiradi.

Nutq va notiqlik san'ati fani majburiy fanlar blokiga kiritilgan kurs bo'lib, bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladi. Mazkur fan tilshunoslik turkumidagi fanlardan biri bo'lib, o'zbek tili, uslubiyat fanlari bilan bog'liqdir. Nutq va notiqlik san'ati fani tilshunoslikning amaliy asosini tashkil etib, san'at va madaniyat sohasi mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

**II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi**

**1-mavzu. Nutq madaniyati faniga kirish.**

Fanning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot. Fan qamrab oluvchi masalalar. Fanga qo'yiladigan talablar. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati tushunchalari, bu tushunchalarning umumiy va farqli jihatlari. Nutq madaniyati va nutq odobi munosabati.Til odobi, nutq odobi, ilmi guftor, husni muomala va sharqona nutq odobi. Fanning shakllanish asoslari va tarixi. Istiqlol davri milliy lisoniy siyosat va davlat tili haqidagi qonunning adabiy-madaniy nutq uchun ahamiyati

**2- mavzu. G'arb va Sharqda notiqlik san'ati.**

Notiqlik san'ati va uning tarixi. G'arbda notiqlik san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Qadimgi Rim notiqligi. Notiqlik va ritorika maktablari. Antik davr notiqlik san'ati va uning asosiy xususiyatlari. Qadimgi Rim va Afina notiqlik san'ati namoyandalari. Notiqlik (ritorika) san'ati nazariyasi asosiy tamoyillari.Qadimgi notiqlik san'tining inqirozi va

| | |
|---|---|
| | 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi<br>3. www.alishernavoiy.uz<br>4. www.ziyo-net.uz<br>5. www.kutubxona.uz<br>6. www.nutq.intal.Uz |
| 7. | Fanning o'quv dasturi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kengashining 2024-yil " ___ " avgustdagi " __ " – sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/Modul uchun mas'ullar**<br>Z.N.Marufova – O'zDSMI, "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.<br>Z.I.Kozimova – O'zDSMI, "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>S.I.Mahmudova - O'zDSMI o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.<br>M.M.Yuldashev – filologiya fanlari doktori, professor |

buning sabablari.

Sharqda notiqlikning vujudga kelishi, rivojlanish asoslari. Roviylik-badiiy so'z ijrochiligi. Mashhur roviylar va nadimlar.A. Navoiy va Xusayn Voiz Koshifiy notiqlik (voizlik) san'ati xususida. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati va muloqot odobi talqinlari. «Qobusnoma», «Pandnoma» nutq odobi va notiqlik san'ati haqida. G'arb va Sharq notiqligining o'zaro umumiy va farqli jihatlari.

**3-Mavzu. Nutq uslublari va ularning asosiy xususiyatlari**

Adabiy tilning uslublar tizimi haqida tushuncha. Funksional uslublarning ijtimoiy – lisoniy (sotsiolingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) sifatlari.Til vositalarining a'moliy – uslubiy ixtisoslashuvi – uslub me'yorlari.Maqsadga muvofiqlik, matniy va vaziyatli asoslanganlik uslubiy me'yor belgisi.Uslubiy meyorlardan chekinish hollari. Ongli chekinishning uslubiy mahorat unsuri ekanligi. Uslubiy xato va nuqsonlar: tasnifi va tavsifi.

**4-Mavzu. Nutqning kommunikativ sifatlari.**

Nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifatlari, ularning nutqdagi ahamiyati. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, izchilligi, mantiqiyligi, shaxsiyligi, ijodiyligi, maqsadga muvofiqligi. Mazkur sifatlarni shakllantirish va ularning buzilishiga olib keluvchi holatlar. Nutq me'yorlarining axloqiy ahkomlari, milliy urf-odatlar bilan vobastaligi. Madaniy nutq mezonlarining nisbiyligi va o'zgaruvchanligi.Madaniy nutq mezonlari va ularni umumiy va shaxsiy fahmlash hollari..Nutq ayblari: turlari, tavsifi. Ularni bartaraf etish yo'llari.

**5-Mavzu. Nutq shakllari va notiqlikning turlari.**

Nutq shakllari. Yozma va og'zaki nutq, ularning o'ziga xos jihatlari va ahamiyati. Notiqlikning shakllari. Akademik notiqlik. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik. Diniy notiqlik. Maishiy notiqlik. Sud notiqligi. Harbiy notiqlik. Hozirgi davr notiqligi va uning ko'rinishlari. Ommaviy axborot nutqi. Rasmiy nutq. So'zlashuv nutqi. Diniy – ma'rifiy ma'ruzalar.

**6-Mavzu. Lug'atlar ustida ishlash xususiyatlari.**

Lug'at turlari: imlo, izohli, frazeologik, paronimlar lug'atlari tahlili. Lug'atlar bilan ishlash xususiyatlari. Lug'atlar bilan ishlashning nutq jarayonidagi ahamiyati. Arxaik va neologizm so'zlar tahlili.

**7-Mavzu. Nutq madaniyati va notiq amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar.**

Nutq texnikasi va orfoepiya. Nutq a'zolari va ularning nutqdagi vazifasi Notiq nutqining to'g'riligi. Ommaviy chiqishlarda notiqlik san'atining ahamiyati. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fanining o'zaro aloqadorligi. Notiq uchun 41 qoida. Notiq muvaffaqiyatining oltita sharti. Ma'ruzaga qiziqishni oshirish yo'llari. Odamlarga yoqish va ular e'tiborini qozonish qoidalari..

| | |
|---|---|
| | **III. Amaliy mashg'ulot mavzular bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br><br>**1.**Nutq uslublari. Nutqning badiiy tasvir vositalari. Ularga doir matnlar va topshiriqlar ustida ishlash.<br>**2.** Shoir va yozuvchilar ijodidagi ijodiy yasalishlarga doir mashqlar ustida ishlash.<br>**3.** Og'zaki nutqda adabiy til me'yorlariga amal qilish.<br>**4.**Nutqdagi tipik xatolar ustida ishlash.<br>**5.**Nutq so'zlash jarayonida improvizatsiya.<br>**6.**Nutq jarayonida qo'l, bosh harakatlari; imo-ishoralar. Ularning me'yorlariga e'tibor berish.<br>**7.**Ovozni ishlatish va nutq mexanikasi.<br>**8.**Ommaviy ma'ruzalarda nutq madaniyatiga e'tibor.<br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik. Akademik notiqlik. Sud notiqligi. Diniy notiqlik. Harbiy vatanparvarlik notiqligi.<br>2. Notiq nutqi samarasida nutq texnikasi. Nutq madaniyati va nutq boyligi. Nutqning kommunikativ sifatlari.<br>3. Sofistlar, ularning notiqlik san'ati rivojidagi xizmati. Konfutsiy ta'limotida nutq madaniyati masalasi.<br>4. Aristotelning notiqlik san'ati ta'limoti. Platonning notiqlik san'ati haqidagi qarashlari. Demosfen – buyuk notiq. Sitseronning notiqlik nazariyasi.<br>5. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari talqini.<br>6. Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda nutq odobi ahkomlari.<br>7. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida nutq odobi tutumlari.<br>8. "Qobusnoma"da suxan va suxandonlik haqida.<br>9. Koshifiyning so'z odobi va notiqlik haqidagi qarashlari.<br>10. O'zbek xalq maqollarida nutq odobining aks etishi.<br>11. Abdulla Qahhor asarlarida nutq va notiqlik masalalari. Abdulla Qahhorning notiqlik, til va nutq borasidagi fikrlari.<br>12. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida o'zbekona nutq odobining aks etishi.<br>13. Said Ahmadning so'z qo'llash mahorati.<br>14. Erkin Vohidovning asarlarida nutq madaniyati masalalari.<br>15. Abdulla Oripovning so'z qo'llash mahorati.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalarning referatlar tayyorlashi va uni taqdimot qilishi tavsiya etiladi. |

| | |
|---|---|
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>- nutq madaniyatini egallashlari uchun adabiy tilning nutq madaniyati bilan munosabatini anglashi, adabiy til va uning me'yorlariga amal qilish bu fanning asosini tashkil etishi haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>- yaxshi nutqni baholay olishlari va unga erishishga yordam beradigan nazariy bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi;<br>- kishilarda madaniy nutq malakasini shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berish lozimligi hamda bir tilda to'g'ri va ravon so'zlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi. |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>-interfaol aqliy hujum;<br>-keys-study;<br>-klaster;<br>-mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;<br>-guruhlarda ishlash;<br>-intellect karta;<br>-noodatiy testlar;<br>-prezentasiya tayyorlash. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol-javob yoki test yechish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.R.Rasulov, Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. -T.: 2015. 116 b.<br>2. N.Bekmirzayev. Notiqlik san'ati asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: "Yangi nashr" – 2018, 238 b.<br>3. R.Mahmudov. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati. Darslik. -T.: 2021, 148 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston", 2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.<br>3. S.Mahmudova, X.Abdujabborova. Nutq madaniyati. Uslubiy qo'llanma. - T.: 2023, 114 b.<br>4. O'.Islamov. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati va muloqot odobi talqinlari. Monografiya. -T.: 2020, 140 b.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali |